

Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash

USLUBIYOTI

Mazkur Uslubiyot Sog'liqni saqlash vazirligining (*bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi*) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

I-bob. Umumiy qoidalar.

1. Vazirlikning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar – davlat xizmatchisining o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi - Vazirlik faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (*jarayonlar*) bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (*jarayonlar*) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (*jarayonlar*) amalga oshirishga mas'ul

bo'lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralari amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash - Vazirlikning faoliyatini (*vazifa va funksiyalarini*) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

qoldiq xavf-xatar - aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo'linma – Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi;

ishchi guruh – Vazirlik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

4. Vazirlik tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash "E-Anticor.uz" elektron platformasi orqali har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan (*bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi*) Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda kamchiliklarning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi mumkin.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish.

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash vazirlik markaziy apparatining barcha boshqarma va bo'limlarini qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo'linma yoki Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a'zolari vazirlikning tarkibiy boshqarma va bo'limlari mas'ul xodimlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Vazir tomonidan buyruq bilan Ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda vazirlik markaziy apparatining Ishchi guruh tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

- Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

- Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini ishlab

chiqish;

- Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ko'rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

- Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

9. Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ko'rib chiqish;
- "E-Anticor.uz" elektron platformasiga korrupsiyaviy xavf-xatarlarni va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini joylashtirish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi.

10. Ishchi guruh tomonidan vazirlik faoliyatining (*vazifa va funksiyalarining*) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

11. Vazirlik faoliyatidagi (*vazifa va funksiyalardagi*) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

12. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

- Vazirlik faoliyatining (*vazifa va funksiyalarining*) huquqiy asosi;
- ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruvi materiallari;
- odob-axloq komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;
- Ishchi guruh tomonidan vazirlik faoliyati (*vazifa va funksiyalari*) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

13. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

- Vazirlik faoliyati to'g'risidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar, OAVdagi xabarlar va statistik ma'lumotlar;
- Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (*vazifa va funksiyalari*) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

14. Ishchi guruh vazirlikning faoliyatidagi (*vazifa va funksiyalaridagi*) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

- Vazirlikning xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;
- Vazirlik tomonidan faoliyatini (*vazifa va funksiyalarini*) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;
- o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;
- hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;
- xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;
- vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

15. Vazirlik faoliyatidagi (*vazifa va funksiyalaridagi*) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

- Past;
- O'rta;
- Yuqori.

16. Ishchi guruh tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, "E-Anticor.uz" elektron platformasidagi chek-listni to'ldirish orqali ma'lum bir vazifa va funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi avtomatik belgilanadi.

4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari.

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;
- inson omilini qisqartirish va davlat tashkiloti faoliyatini (*vazifa va funksiyalarini*) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;
- Vazirlik faoliyatini (*vazifa va funksiyalarini*) tartibga solish choralarini ko'rish;
- Vazirlik xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;
- rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida vazirlik tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

- davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

- Vazirlik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Vazirlik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur Uslubiyotning 16-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi va "E-Anticor.uz" elektron platformasida bu qayd etiladi.

19. Vazirlik markaziy apparatining Ishchi guruhi tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda markaziy apparatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi "E-Anticor.uz" elektron platformasiga yuklanadi.

20. Vazirlikning tizimosti korxonalari tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ishlab chiqiladi va shu tashkilotdagi Ishchi guruhiga ko'rib chiqish uchun taqdim qilinadi.

21. Vazirlikning Ishchi guruhi tomonidan vazirlik faoliyatidagi (*vazifa va funksiyalaridagi*) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida vazirlikning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va "E-anticor.uz" elektron platformasiga har yili **1-fevralga** qadar kiritiladi.

22. Vazirlik markaziy apparatining Ishchi guruhi tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi xujjatlar shakllantiriladi:

- Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;
- Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

5-bob. Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestrini shakllantirish va yuritish tartibi.

23. Agentlik tomonidan “E-anticor.uz” elektron platformasida joylashtirilgan vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri shakllantiriladi.

24. Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri loyihasi Agentlik tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun o‘n besh kundan kam bo‘lmagan muddatga “E-anticor.uz” veb-saytiga joylashtiriladi.

25. Agentlik jamoatchilik muhokamasi natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan takliflarni muhokama yakunlangan kundan boshlab o‘n kun ichida “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali davlat tashkilotiga yuboradi.

26. Vazirlik markaziy apparatining Ishchi guruhi Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

27. Vazir har yili 1-martga qadar korrupsiyaviy xavf- xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini elektron imzo orqali “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar.

28. Ushbu Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi o‘zgargan taqdirda yoki vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish jarayonini takomillashtirish zarurati tug‘ilganda qayta ko‘rib chiqilishi va o‘zgartirilishi lozim.

29. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

*Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatida
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash Uslubiyotiga
1-Ilova*

Vazirlik faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) TAVSIFI

[illegible]

*Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatida
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash Uslubiyotiga
2-Ilova*

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo'yicha MEZONLAR

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori*	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	Nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	Vazirlik faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O'rta	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	Nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Vazirlik faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan
	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	Vazirlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas

*Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatida
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash Uslubiyotiga
3-Ilova*

“TASDIQLAYMAN” Sogʻliqni saqlash vaziri

“ ” 2025 yil

Sogʻliqni saqlash vazirligi faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning XARITASI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning gavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, oʻrta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga masʼul boʻlgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, oʻrta, yuqori)	Masʼul ijrochilar
	1. Tarkibiy boʻlinmaning nomi*						
1.	1. Boʻlim funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1.Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						
	2. Tarkibiy boʻlinmaning nomi*						
2.	1. Boʻlim funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

*Sogʻliqni saqlash vazirligi faoliyatida
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash Uslubiyotiga
4-Ilova*

**Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
1.				
2.				